O'TKIR HOSHIMOVNING "TUSHDA KECHGAN UMURLAR" ROMANIDA INSON VA UNING RUHIYATI	O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umurlar" romanida inson va uning ruhiyati ..... 660 <b>Xolmatova Ro'zixon Akmaljon qizi</b>
TALABALARDA LIDERLIKNI SHAKLLANTIRUVCHI IJTIMOY-PEDAGOGIK OMILLAR	Talabalarda liderlikni shakllantiruvchi ijtimoiy-pedagogik omillar ..... 663 <b>Xoshimova Muazzamxon Zaynalobidinovna</b>
CREATIVE GAMES AND PROJECT-BASED LEARNING IN PHYSICS LESSONS	Creative Games and Project-Based Learning in Physics Lessons ..... 666 <b>Yorqinbek Abduraimjanovich Mamatokhunov</b>
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ПРИМЕНЕНИЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА В ОБУЧЕНИИ ФИЗИКЕ	Теоретические основы и практическое применение компетентностного подхода в обучении физике ..... 670 <b>Абдулхаким Хакимов</b>
РОЛЬ ИНКЛЮЗИВНОЙ ИГРОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СОЦИАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ ДЕТЕЙ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА	Роль инклюзивной игровой деятельности в социальной адаптации детей с инвалидностью дошкольного возраста ..... 673 <b>Плиева Руслана Владимировна</b>
"BERUNIY ASRI" YOXUD BERUNIYNING XARIZMATIK QOBILIYATI VA UNING BOQIY ILMIY MEROSI	"Beruniy asri" yoxud Beruniyning xarizmatik qobiliyati va uning boqiy ilmiy merosi ..... 676 <b>Saifnazarov Ismoil, Sultonov Tursinboy</b>
ЗНАЧЕНИЕ НАБЛЮДЕНИЯ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ В ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ	Значение наблюдения и педагогической диагностики в инклюзивном образовании ..... 682 <b>Тургунова Нилуфар Абдусаломовна</b>
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING EKOLOGIK DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI	Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik dunyoqarashini shakllantirish texnologiyalari ..... 685 <b>Xaydarova Shaxlo Narzullayevna, Azimova Gulmira Xayrullayevna</b>
ДИАЛОГ КУЛЬТУР В РАССКАЗЕ "КЕЛИНКА" ГАЛИНЫ ШИРЯЕВОЙ: ГЕНДЕРНАЯ И ЭТНОКУЛЬТУРНАЯ ПЕРСПЕКТИВА	Диалог культур в рассказе "Келинка" галины ширяевой: гендерная и этнокультурная перспектива .. 689 <b>Чернова Татьяна Алексеевна</b>



# BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA XALQ PEDAGOGIKASI VOSITASIDA MILLIY XARAKTER XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Usmonova Muattar Bahadirjonovna  
 University of Business and Science  
 Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti v.b

Hasanboyeva Kamola Dilmurod qizi  
 Psixologiya yo'nalishi 2- bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda xalq pedagogikasi vositasida milliy xarakter xususiyatlarini shakllantirish omillari, tarbiyaning maqsad va vazifalari borasida muayyan xalqning hayotiy tajribasi hamda turmush tarzida shakllangan amaliy qarashlar majmui bayon etilgan. Shuningdek, muayyan jamiyatda yashash uchun har bir inson amal qilishi lozim bo'lgan urf-odatlar, udumlar, xulq-odob qoidalari, marosimlar, an'analar, turmush tarzi, badiiy ijod va o'yin kabi empirik vositalarda xalq pedagogikasining ifodalanishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy xarakter, xalq pedagogikasi, tarbiya, pedagog.

**Abstract:** This article explores the factors contributing to the development of national character traits in future educators through folk pedagogy. It highlights the life experiences and practical perspectives of a specific people regarding the goals and objectives of upbringing. The article also provides insights into how folk pedagogy is manifested in empirical tools such as customs, traditions, behavioral norms, rituals, lifestyle, artistic creativity, and traditional games, which are essential for individuals living within a society.

**Key words:** national character, folk pedagogy, upbringing, educator.

**Аннотация:** В статье рассматриваются факторы формирования национального характера у будущих педагогов посредством народной педагогики, жизненный опыт конкретного народа, а также практические взгляды, сформированные в его образе жизни, на цели и задачи воспитания. Также приведены сведения о проявлении народной педагогики через эмпирические средства, такие как обычаи, традиции, нормы поведения, обряды, образ жизни, художественное творчество и игры, обязательные для соблюдения каждым членом общества.

**Ключевые слова:** национальный характер, народная педагогика, воспитание, педагог.

## KIRISH

Milliy istiqlol O'zbekiston maktablarida ta'lim va tarbiyani takomillashtirish va buning uchun, avvalo, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarliklarini takomillashtirish zaruriyatini kun tartibiga qo'ydi. Ushbu ijtimoiy buyurtmani bajarish universitet va pedagogika institutlarida o'quv-tarbiyaviy jarayonni oqilona tashkil qilishni, bo'lajak o'qituvchilarni milliy tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning samarali shakl, uslub va vositalarini izlab topishni; talabalarni milliy istiqlolning pedagogik ehtiyojlarini to'g'ri talqin qilishga o'rgatishni; milliy tarbiya nazariyasi va uslubiyati haqidagi ilmiy bilimlar bilan qurollantirishni; milliy tarbiyachilik ko'nikma va malakalarni maxsus shakllantirishni taqozo qildi.

Boshqa tomondan, bu muammo respublikamiz pedagog-olimlarining maqolalarida, munozaralarida dolzarb mavzuga aylana bordi. Pedagogik jamoatchilik fanimizning 90-yillari boshidagi holatiga "pedagogika ilmidagi chuqur inqiroz" deb tashxis qo'ydilar. Bu inqirozning tub ildizlari eng avvalo:

- pedagogikaning milliy zamindan, ko'hna Sharqning ming yillik teran an'alaridan uzilib, mutlaqo o'zga milliy asoslarga tayangan holda talqin qilinganida;
- pedagogik qonuniyatlar masalasining behad kuchsiz ishlanganida;
- bu borada hamon umumiy munozaralardan chetga o'tilmayotganligida;

O'zbekiston uzoq vaqt boshqa milliy pedagogikalar tarixini o'rganish urf bo'lganligida va boshqalarda ekanligi chuqur asoslab berildi'.

Mazkur kamchiliklar o'qituvchi-tarbiyachi tayyorlashning nazariy, g'oyaviy jihatlarini o'z ichiga olgan bo'lsa, boshqa tomondan, pedagogik amaliyotda yosh o'qituvchilarning tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishdagi no'noqliklarida qayta-qayta qayd etilmoqda edi. Bu esa, haqiqatan ham, o'qituvchi-tarbiyachi tayyorlash tizimini milliy istiqloliy talablar asosida isloh qilishni dolzarb mavzuga aylantirgan edi. Shu tariqa mustaqillik, milliy istiqlolning O'zbekiston o'qituvchisiga qo'yayotgan milliy tarbiyaviy talablari va o'qituvchilarimizning milliy tarbiyaviy faoliyatga tayyorlik darajalari orasida nomuvofiqlik mavjud edi.

Mazkur kamchiliklarning bartaraf qilinishi bo'lajak o'qituvchilarni milliy tarbiyaning nazariy, uslubiy asoslari bilan qurollantirish; talabalarni nazariy xulosalar chiqarish; pedagogik vaziyatlarni mustaqil tahlil qilish; pedagogik sabab va oqibatlar orasidagi bog'lanishlarni kuzatish; pedagogik ta'sir mantiqini egallash; pedagogik diagnostika, texnologiya, prognostika uslublarini qo'llash; o'rganilgan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lashga o'rgatish kabi pedagogik-psixologik vazifalarni hal qilishni talab etadi.

Xalq pedagogikasi – tarbiyaning maqsad va vazifalari borasida muayyan xalqning hayotiy tajribasi hamda turmush tarzida shakllangan amaliy qarashlar majmui; muayyan jamiyatda yashash uchun har bir odam amal qilishi shart sanalgan va urf-odat, udum, xulq-odob, marosim, an'ana, turmush tarzi, badiiy ijod, o'yin singari empirik vositalarda namoyon bo'ladigan amaliy faoliyatdir.

Xalq pedagogikasi fanda etnopedagogika deb ham yuritiladi. Pedagogika fanida xalq pedagogikasiga xos eng muhim belgilaridan biri – uning qadimiyligidir. Har qanday xalq muayyan etnos sifatida mavjud bo'lishi uchun o'ziga xos qiyofaga ega bo'lishi kerak. Xalqning ijtimoiy, ma'naviy, intellektual qiyofasi esa uning pedagogika vositasidagina shakllanadi. Xalq pedagogikasi muayyan xalqning o'zi bilan birga dunyoga kelgani uchun ham uning tarixi xalq tarixi bilan teng.

Xalq pedagogikasining ikkinchi belgisi – uning to'liq amaliy xususiyatga egaligidir. Xalq ta'lim-tarbiya jarayoni va uning natijalariga pragmatik nazar bilan qaragani uchun xalq pedagogikasi g'oyalar shaklida emas, balki urf-odat, an'ana, amal, udum, xulq-odoblarni tarzi namoyon bo'ladi. Xalq pedagogikasi ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlar yig'indisi emas, balki amal qilinishi majburiy bo'lgan va bajarilishi hamma tomonidan nazorat qilinadigan amaliy xulqiy ko'nikmalar majmuidir.

Xalq pedagogikasining uchinchi xususiyati – uning muallifi noma'lum, anonim pedagogika ekanligidir. Xalq pedagogikasi talablarining yaratuvchisi ma'lum bo'lmaganligi uchun ham ular muqaddas sanalgan va so'zsiz bajarilgan. Etnopedagogikaga doir biror talabning muallifi ma'lum bo'lsa, uning ta'siri pasayib ketadi. Chunki u, kim bo'lishidan qat'i nazar, qandaydir bir odamning istagi sifatida qabul etiladi. Anonimlik esa urf-odat, udum, xulq-odoblarga sirlilik, muqaddaslik tusini beradi.

Xalq pedagogikasining to'rtinchi belgisi – uning sinkretik (qorishiq) xususiyatga egaligidir. Xalq hayoti ko'p qirrali ekani bilan birga yaxlit bo'lganidek, uning pedagogikasi ham qorishiqdir. Xalqning turli yo'nalishdagi pedagogik tadbirlari sinkretik tarzda birvarakayiga olib borilgani uchun xalq pedagogikasiga alohidalik emas, umumiylik xosdir.

Xalq pedagogikasining beshinchi belgisi – uning keng yoyilganligidir. Xalq pedagogikasiga oid amallar muayyan etnik birlikning barcha a'zolariga birday tatbiq qilinadi. Muayyan shaxslarning xohish-irodasi qandayligidan qat'i nazar, xalqning har bir vakili uning tarbiya va yashash tarziga doir talablariga rioya etishga majburdir. Xalq pedagogikasi talablarini bajarishda tarbiyalanuvchining istaklari inobatga olinmaydi.

Muayyan etnik birlikning turmush tarzida namoyon bo'lishi xalq pedagogikasining oltinchi xususiyatidir. Xalq pedagogikasi empirik tabiatga ega bo'lib, jamiyat a'zolari hayotini yo'lga qo'yishga qaratilgan bo'ladi va uning qoidalari muhokama uchun emas, balki turmush mobaynida amal qilish uchundir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yosh avlod tomonidan milliy xarakter xususiyatlarini chuqur anglanishiga erishish jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur vazifani ijobiy hal qilish uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'quvchilarni milliy xarakter xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirish, ularda milliy qiyofada aks etuvchi ijobiy xususiyatlardan g'ururlanish hissini tarbiyalash imkonini beradi.

Badiiy asarlar vositasida o'quvchilarni milliy qadriyatlar va milliy axloq me'yorlariga muvofiq kamol toptirish, ular tomonidan o'zlikni anglash, o'zini o'zbek millatining tipik vakili sifatida munosib baholash ko'nikmalarini hosil qiladi.

V. Qo'chqorovning fikriga ko'ra, shaxs tomonidan o'zlikni anglash o'z navbatida milliy o'zlikni anglashning dastlabki bosqichi sanaladi: "O'zlikni anglash, idrok etish, farqlash – milliy o'zlikni anglashning debochasi deyish mumkin. Milliy o'zlikni anglash uchta komponentdan iborat deb qarash lozim. Buning birinchisi – o'z-o'zini bilish, ikkinchisi – o'z-o'zining qadrini baholash va emotsional holatini anglab yetish bo'lsa, uchinchisi – o'z-o'zini boshqarishdir."<sup>1</sup>. Bizning fikrimizcha, aynan mana shu uchlik suveren respublika sifatida jahon hamjamiyati

1 Кўчқоров В. Маънавият ва миллий ўзликни англаш. – Т.: Akademiya, 2008. – 5-6.



tomonidan tan olingan O'zbekistonda milliy mustaqillikni himoya qilish va mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

Ijtimoiy pedagogika darsligi muallifi Nodira Egamberdieva ham milliy xarakter tushunchasi bugungi kunda kam ishlatilayotganligini e'tirof etib: "Etnosning shaxsiy, faoliyat va ijtimoiy darajalaridagi xususiyatlari etnopsixologiya orqali ifodalanadi. Etnopsixologiya milliy hissiyot va kayfiyat, milliy madaniyat va manfaat, milliy an'analarni o'z ichiga oladi. So'nggi yillarda etnopsixologiyada 'milliy xarakter' tushunchasi kam ishlatilmoqda. Etnik guruhlarining psixologik xususiyatlarini ifodalash uchun esa ... va mentalitet tushunchalari qo'llanilmoqda," – deya ta'kidlaydi.<sup>2</sup>, – deya ta'kidlaydi.

"Katta psixologik ensiklopediya" ("Большая психологическая энциклопедия")da "xarakter" tushunchasi shunday sharhlanadi: "Xarakter – shaxsning faoliyat, muloqot, turli vaziyatlarda uning uchun tipik bo'lgan xatti-harakatlari, individning o'ziga, borliqqa hamda kishilarga bo'lgan munosabatlarida aks etadigan individual, o'ziga xos turg'un xususiyatlari sanaladi. Shaxs xarakteri tarbiya, o'z-o'zini tarbiyalash, ijtimoiy muhit, hayotiy tajriba hamda doimiy faoliyat ta'sirida shakllanadi.

Xarakterni: I. Kant hayotiy faoliyat davomida shakllanib boradigan, L. Malaper, A. Fulelar tug'ma va orttirilgan xususiyat deb hisoblagan bo'lsalar, T. Ribo, F. Palanlarning nuqtayi nazariga ko'ra, ijtimoiy shartlangan (ya'ni ijtimoiy ta'sirlar natijasida ro'y beradigan) hodisa sanaladi"<sup>3</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Shaxsda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishda unda ongning rivojlanganligiga e'tibor qaratish talab qilinadi. Chunki aynan ongning rivojlanganlik darajasiga ko'ra shaxs o'z xarakter xususiyatlarini tahlil qila oladi, xatti-harakatlarini baholaydi. "Individual ong o'z-o'zini anglash, tarixiy zaruriyat ostida insonning jamiyat va boshqa kishilar bilan munosabatlari jarayonida o'zini nazorat etish va o'zini idora qilish kabi hayotiy muhim vosita sifatida paydo bo'lgan. Kishidagi individual ong mehnat va ijtimoiy munosabatlar ta'sirida o'zini anglash, o'zini nazorat etish, boshqarish jarayonida shakllana borgan."

Bizning fikrimizcha, shaxs ongini rivojlantirishda boshqa ma'naviy qadriyatlar kabi badiiy asarlarning ham imkoniyatlari katta. Milliy turmush tarzi, xarakter xususiyatlarini yorituvchi asarlar qahramonlarining obrazlari, hayotiy maqsadlari, ijtimoiy borliqqa bo'lgan munosabati hamda o'z-o'zini takomillashtirish yo'lida amalga oshiradigan xatti-harakatlari asosida shaxsiy faoliyatini tahlil qilib, o'zligini baholaydi.

Har bir elat, millat va xalqqa taalluqli bo'lgan milliy tarbiya negizida mental xususiyatlarni tarbiyalashga oid g'oyalar yotadi. Muayyan elat, millat, xalqning ma'naviy va moddiy qadriyatlari: oila, farzandlar tarbiyasi, kasbiy faoliyat, fuqarolik, diniy mansublik hamda ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish, shuningdek, insonning tabiat bilan uyg'unligi, jamiyatni anglashi, hayotiy intilishlari, orzu-umidlari borasidagi asriy yondashuv va qarashlar milliy mentalitetga xos xususiyatlarda namoyon bo'ladi.

Shaxsning milliy mentalitetiga u yashayotgan muhitning geografik joylashuvi, iqlimi, yashash sharoiti ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Olib borgan tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda e'lon qilingan ishlarda "milliy xarakter" tushunchasining muqobili sifatida "mentalitet" atamasi qo'llanilmoqda. Jumladan, "Izohli ilmiy-ommabop lug'at"da "mentalitet" tushunchasi lotincha mens so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tiliga tarjima qilinganda "aql, idrok" ma'nolarini anglatishi qayd etilib, quyidagicha ta'rif beriladi: "Jamiyat, millat, birlik yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati bo'lib, jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o'ziga xos an'analari, rasm-rusumlari, urf-odatlar, diniy e'tiqod va irimlarini ham qamrab oladi"<sup>4</sup>.

"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da esa mazkur tushunchaning mohiyati quyidagicha ifodalanadi: mentalitet – ayrim kishi yoki ijtimoiy guruhga xos aqliy qobiliyat darajasi, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o'ziga xos tarixiy an'analari, urf-odatlar, diniy e'tiqodini qamrab oladi. Har bir millatning mentaliteti uning tarixi, yashab turgan shart-sharoiti, ijtimoiy faolligi va boshqa bir qator omillar bilan bog'langan bo'ladi"<sup>5</sup>.

"Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha, tamoyillar va atamalar (Qisqa izohli tajribaviy lug'at)"da "mentalitet" tushunchasi "milliy mentalitet" shaklida qo'llanilib, unga shunday ta'rif berilgan: "Millatning tarixan shakllangan tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, yashash va fikrlash tarzi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda kamolga yetgan qobiliyati va ruhiy quvvati. Bu tushuncha millatga xos an'analari, rasm-rusumlar, urf-odatlar, diniy e'tiqodni ham

2 Ижтимоий педагогика дарслик.Нодира Эгамбердиева А.Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашрети Тошкент-2009 б 45

3 Большая психологическая энциклопедия / Самое полное современное издание. Более 5000 психологических терминов и понятий. – М.: Эксмо, 2007. – С. 489.

4 Мустақиллик: Изохли илмий-оммабоп луғат / Муаллифлар: М. Абдуллаев ва бошқ. Р.Рўзиев ва Қ.Хоназаров умумий таҳририда. – Т.: Шарқ нашриёт-матбаа концерни, 2006. – 191-б.

5 Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5 жилдди. 5-жилд. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2004. – 595-б.

o'z ichiga oladi. O'z navbatida, u muayyan millatga mansub kishining turmush tarzi, fikrlashi, dunyoqarashini ham bir qadar belgilaydi, gohida uni baholash uchun asos bo'ladi"<sup>6</sup>.

Ayrim manbalarda milliy mentalitetni o'rganishda ijtimoiy fanlarning o'rni beqiyos ekani, shuningdek, milliy qadriyatlarni tiklashda yangi imkoniyatlarni yarata olishi aytiladi. Ya'ni, "Mentalitet nazariyasini ishlash va o'zbek xalqining haqiqiy boy va rang-barang tarixini tiklash ijtimoiy fanlarning bugungi dolzarb vazifalaridan biridir. Mustaqillik o'zbek xalqi oldida o'z mentalitetini o'rganish, uni tiklash va boyitishda ulkan imkoniyat ufqlarini ochdi."<sup>7</sup>.

M. Bekmurodovning fikricha, o'zbek mentalitetini zamon mantig'iga muvofiq evolyutsion o'zgartirishning yaxlit tizimini ishlab chiqish zarur sanaladi. Bu o'rinda muallif shaxsiy takliflarni ilgari suradi. Mazkur o'rinda, mazkur tizim doirasida aks etishi lozim bo'lgan muallif qarashlarining shaxsda milliy xarakter xususiyatlariga dahldor jihatlari keltirib o'tiladi: so'z va ish birligiga rioya qilish, va'dabozlik, ortiqcha chiranish, eskapizm, maqtanchoqlikka moyillik singari illatlarga qarshi kurash olib borish, har bir narsa, hodisani o'z nomi bilan aynan ifodalashga o'rganishdir.

Odamlarda o'z fe'l-atvorlari, sa'y-harakatlari, intilishlari, ma'naviy qiyofasining holati xususida shaxsiy taftish malakasini rivojlantirish, o'z ustida doimiy ishlash, takomillashuv, o'zidan qoniqmaslik xususiyatlarini rivojlantirish, o'zi yonib boshqalarni ham yondira olish xususiyatlarini tarkib toptirish, ezgulik yo'lida fidoyi bo'lish, yaxshilik qilishga, boshqalarning tashvishiga yelkadosh bo'lishga tayyorlik xususiyatlarini kamol toptirish, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi yo'lidagi intilishlar bilan shaxsiy sa'y-harakatlardan qutuluvchi manfaatlar uyg'unligiga erishishdir.

Ezgu va savob ishlarni har kuni va hamisha qilishga tayyorlik va shunga kuchli ichki rag'bat, ehtiyoj, intilish xususiyatlarini tarkib toptirish, milliy merosni yalpi o'zlashtirish, qadriyatlarimizdan chin iftixor tuyg'ularini his qilish, g'ururlanish va zavq ola bilishni tarbiyalash, insof, adolat, halollik, vijdon singari tamoyillar tarbiyasini doimiy ravishda, muntazam tarzda olib borish, bu ishda rahbarlar, obro'li shaxslar, lider-yetakchilar, otalarning shaxsiy ibrati omilidan samarali foydalanish; o'zini jamoaning nafaqat miqdoriy-jisman a'zosi, balki ma'naviy bo'lagi deb his etish, umumiy intilishlar, sa'y-harakatlar, maqsadlar tizimi mazmuniga har bir inson o'z ulushi, hissasi nechog'li ekanligini anglashni rivojlantirish, intellektual mulk ustuvor ahamiyat kasb etayotgan hozirgi zamonda har tomonlama va chuqur bilimlar sohibi bo'lishga intilish, umumjahon taraqqiyoti jarayonlariga faol integratsiyalashuv yo'lidan borish katta ahamiyat kasb etadi<sup>8</sup>.

## TAHLILLAR VA NATIJALAR

Pedagogik va psixologik, falsafiy manbalarda shaxsning rivojlanishi hamda ijtimoiylashuvida turli omillarning ta'siri sezilarli bo'lishi ta'kidlanadi. Shunga ko'ra, tadqiqotni olib borish davrida o'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishga samarali ta'sir qiladigan omillarning aniqlanishiga alohida e'tibor qaratildi. Nazariy o'rganishlar natijasida shaxsda milliy xarakterga xos xususiyatlarni rivojlantirishda quyidagi omillar muhim ahamiyatga egaligi aniqlandi:

- Oiladagi muhit (oila a'zolarining milliy madaniyat hamda qadriyatlarga tayangan holda hayot kechirishlari, turmush tarzida milliy-axloqiy qarashlarning ustuvorligi, shaxslararo munosabatlarda o'zbekona odo-axloq qoidalariga rioya etilishi).
- Bola mansub bo'lgan mikromuhitda u tomonidan milliy xarakter xususiyatlarini o'zlashtirish uchun zarur shart-sharoitning mavjudligi.
- Ta'lim muassasalarida shaxslararo muloqotning milliy-axloqiy qarashlar va o'zbekona odo-axloq qoidalariga muvofiq tashkil etilishi.
- Mahallalarda uyushtirilayotgan bayramlar, urf-odatlar va marosimlarda milliy axloq talablariga rioya etilishi.
- Mehnat jamoalari hamda norasmiy guruhlarda tashkil etiladigan ijtimoiy aloqalarda milliy-madaniy g'oyalar hamda milliy-axloqiy me'yorlar talablariga amal qilinishi.
- Jamiyatda milliy tarix, madaniyat va qadriyatlarning o'rganilishiga e'tibor qaratilganligi.
- Ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tashkilotlar tomonidan aholi, shu jumladan, yoshlar o'rtasida milliy tarix, madaniyat hamda qadriyatlarning keng targ'ib etilishi.

6 Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча, тамойиллар ва атамалар (қисқа изоҳли тажрибавий луғат). – Т.: Янги аср авлоди, 2002. – 111-б.

7 Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат / Муаллифлар: М. Абдуллаев ва бошқ. Р.Рўзиев ва Қ.Хоназаров умумий таҳририда. – Т.: Шарқ нашриёт-матбаа концерни, 2006. – 192-б.

8 Бекмуродов М. Ўзбек менталитети. – Т.: "Янги аср авлоди" нашриёти, 2004. – 15-16-б



Ma'lumki, bola kundalik hayotining ko'p qismi oila muhitida kechadi. Shu sababli oilaning bolada milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishga imkon beruvchi shart-sharoitlarga egaligi muhim sanaladi. "Oilaviy muhit, undagi shaxslararo munosabatlar, farzandlarning ko'p-ozligi, yoshidagi farqi, nizoli vaziyatlar va ularning ko'rinishi, ota-ona munosabatiga asoslangan holda xarakterning o'ziga xos xususiyatlari shakllanadi." Qolaversa, "Ilk yoshlik davrida shakllangan xarakter xususiyatlari nihoyatda barqaror bo'lib, hatto ularga ayrim o'zgarishlar kiritish ham juda qiyin kechadi."

Oila tarbiyasini tashkil etishda bolaning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni milliy urf-odatlar, marosimlar hamda bayramlarning mohiyati bilan tanishtirib borish, kattalarning xatti-harakatlari, o'zlarini tutishlari, muomalalari va atrofdagilar bilan munosabatlari namunasida milliylik, milliy xarakter xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirib borishga e'tibor qaratish pedagogik jihatdan samarali sanaladi.

"Ma'lumki, bola kichik yoshdan boshlaboq taqlidchan bo'ladi. Bolalar ota-onasiga va atrofdagi boshqa yaqin kishilarga o'xshashlikka moyil bo'ladilar. Ular kattalarning yurish-turishlari, xulq-atvorlari, imo-ishoralari, dasturxon ustida o'zlarini qanday tutishlari va kichkina bolalarga munosabatda bo'lishlariga va ularning gap-so'zlariga, hattoki, ularning gap ohanglarigacha – hamma mayda narsalargacha taqlid qilishga urinadilar. Shuning uchun ham ijtimoiy muhitning ta'siri ostida boladagi ayrim xarakter xususiyatlari juda yoshlikdan boshlaboq, go'yo o'z-o'zicha hosil bo'lgan xususiyat tariqasida mustahkamlana boshlaydi. Kattalarga taqlid qilish xususiyati bolalarning o'sib borish davrida ham saqlanadi."

Bola mansub bo'lgan mikromuhit ham uning shaxsida milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bolalar o'yinlarining milliy xarakterga egaligi, ularni tashkil etishga ijodiy yondashuv, shuningdek, ishtirokchilar o'z harakatlarida faollik, zukkolik, topqirlik, tezkorlik kabi sifatlarga ega bo'lishining talab qilinishi – ular tarbiyaviy imkoniyatining beqiyosligini ko'rsatadi. Milliy xarakterga ega bolalar o'yinlarining tashkil qilinishida kattalar o'z ko'rsatmalari, yo'l-yo'riqlari bilan bevosita va bilvosita ishtirok etishlari mumkin. Bunga ular tomonidan bolalarga milliy o'yinlar, ularning asosiy g'oyalari hamda shaxs xarakterini tarbiyalashdagi roli va ahamiyatining ko'rsatib berilishi muhimdir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Shaxsni rivojlantirish, uning ma'naviy-axloqiy va irodaviy sifatlarga ega bo'lishida ijtimoiy-gumanitar fanlar hamda badiiy asarlar o'ziga xos o'rin tutadi. O'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishda ham badiiy asarlar, ularda yoritilgan qahramonlarning obrazlari ta'sir kuchiga ega ekanligini pedagogik tajriba tasdiqladi.

Mumtoz va zamonaviy o'zbek adabiyoti namunalari bilan tanishish, ularda milliy turmush tarzi va milliy xarakter xususiyatlarining qay darajada yoritilganligini o'rganish, ulardan adabiy ta'lim jarayonida samarali foydalanish o'quvchilarning irodaviy va ma'naviy-axloqiy xususiyatlarga ega bo'lishiga xizmat qiladi. Shu ma'noda ijtimoiy-gumanitar fanlari o'qituvchilari ishtirokida tashkil etilgan suhbat, davra suhbatlari va ulardan olingan natijalar ijobiy samara berganligi bilan xarakterlandi.

O'quvchilarni o'zbek xalqiga xos milliy xarakter xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirish ularda badiiy qahramonlarning qiyofalari, irodaviy va ma'naviy-axloqiy sifatlarini baholash ko'nikmalarini shakllantiradi hamda ularga nisbatan shaxsiy munosabatni qaror toptiradi. Badiiy asarlar vositasida milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishning mavjud holati o'rganilganligi va olingan natijalarga qarab kerakli tavsiyalar ishlab chiqilganligi samarali natijalar berdi.

Ta'lim muassasalari faoliyatini o'rganish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning tashkil etilishi, o'quvchilar faoliyatini kuzatish – badiiy asarlar vositasida ularda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirish masalasining e'tibordan chetda qoldirilganligini, buning obyektiv va subyektiv sabablari mavjudligini ko'rsatdi.

Nazariy tahlillar ko'rsatishicha, o'quvchilarning faoliyati jarayonida, shuningdek, zamonaviy taraqqiyot talablariga muvofiq ularning xarakterida yaqqol ko'zga tashlanmayotgan yoki yetarli darajada rivojlanmagan xususiyatlar aniqlandi. Ular:

- bag'rikenglik, mehr-oqibatlilik;
- milliy qadriyatlarga hurmat, an'analarga sodiqlik;
- o'z manfaatidan jamoa va jamiyat manfaatlarini ustun qo'yish;
- mardlik, shijoat, qat'iyatlilik;
- oriyatlilik, g'ururli bo'lish;
- hayolilik, andishalilik;
- kattalarga hurmat ko'rsatish;

- to'g'riso'zlik, halollik;
- vijdonlilik, adolatparvarlik;
- mehnatsevarlik, mas'uliyatlilik.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Юсуф Муҳаммад. Биз бахтли бўламиз. – Т.: Нихол нашриёти, 2008. – Б.191.
2. Юсуф Муҳаммад. Сайланма / Шеърлар. Достонлар. Шоир ҳақида хотиралар. – Т.: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2005. –Б.287.
3. Умарбеков Ў. Фотима ва Зухра// Роман. – Т: Янги аср авлоди, 2015.Б.187
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5 жилдли. 5-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2004. – Б.595.
5. Мадвалиев А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А – Д / 5 жилдли. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б.679.
6. Мадвалиев А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Е – М / 5 жилдли. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2006. – 671 б.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.